


2022-yil yanvar-may oylarida uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-may oylarida Samarqand viloyatida jami **2944,4 mlrd. soʻmlik** qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2021-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **103,6 %** ni tashkil etdi.




2022-yil yanvar-may oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2022-yil yanvar-may oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxonalar va tashkilotlar soni 3,6 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni esa, 3,4 mingtani tashkil etib, o'tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 178 taga ko'paygan.

2022-yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurilishi ishlari hajmi 126,8 % ni tashkil qilib (jami qurilishdagi ulushi 68,3 %) ni tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlarining eng yuqori ulushi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021-yilning yanvar-may oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 16,5 % ni tashkil etdi.




**Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.06.2021- yil	01.06.2022- yil	
Samarqand viloyati	3244	3422	178
Samarqand sh.	1124	1154	30
Kattaqo'rg'on sh.	109	138	29
tumanlar:			0
Oqdaryo	147	164	17
Bulung'ur	76	76	0
Jomboy	126	136	10
Ishtixon	153	140	-13
Kattaqo'rg'on	133	143	10
Qo'shrabot	75	78	3
Narpay	82	87	5
Payariq	272	295	23
Pastdarg'om	318	336	18
Paxtachi	68	72	4
Samarqand	142	154	12
Nurobod	59	64	5
Urgut	227	242	15
Toyloq	133	143	10



**Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalarining hududlar kesimida
ulushi (% da), 01.05.2022-yil holatiga**




Ma'lumot uchun: Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand shahri (33,7 %), Pastdarg'om (9,8 %) va Payariq (8,6 %) tumanlaridir.

2022-yilning yanvar–may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **493,3** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 109,0 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **16,8** % ni tashkil qildi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **50,3** %i), Pstdarg'om tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,3** %i), Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **12,1** %i), va Samarqand (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **7,1** %) tumanlarga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

- 2022- yil yanvar-may oylarida
- 2021- yil yanvar-may oylarida


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022-yil yanvar-may oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **71,8 %** i bajarilib, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **0,5 %** punktga ko'payish kuzatildi.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,0 %** ni tashkil etgan holda **2 114,5 mlrd.** so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **11,4 %** ni tashkil etib, **336,6 mlrd.** so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **70,2%** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **66,6** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati 2021-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **77,6 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **2,3 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2877,8** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **129,3 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **97,7%** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

2022-yil yanvar-may oylarida

69,1 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **69,1%** yoki **2035,5** mlrd. so'mni tashkil etgan.

23,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **482,2** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **23,7 %** ni tashkil etdi.

60,1 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1223,8** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **60,1%** ni tashkil etdi.

16,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **329,5** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **16,2%** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2022-yil yanvar-may oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari (mlrd. so'm)
Samarqand viloyati	2 944,4	103,6	2 035,5
Samarqand sh.	1041,5	111,5	773,4
Kattaqo'rg'on sh.	36,0	80,9	26,8
tumanlar:			
Oqdaryo	207,2	95,5	162,8
Bulung'ur	81,7	116,1	55,0
Jomboy	117,1	92,3	99,7
Ishtixon	127,7	98,9	103,8
Kattaqo'rg'on	70,9	91,3	60,2
Qo'shrabot	55,4	87,8	52,9
Narpay	69,1	87,6	60,2
Payariq	189,1	102,3	172,5
Pastdarg'om	218,4	126,9	87,4
Paxtachi	54,9	93,1	45,3
Samarqand	148,3	110,0	76,8
Nurobod	31,6	86,4	12,4
Urgut	165,2	109,5	158,8
Toyloq	330,3	91,4	87,5

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, %da

2022-yil yanvar-may oylarida

3,4



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

60,7



Fuqarolik obyektlarini qurilishi

35,9



Bino va inshootlarni qurilishi

2022- yil yanvar-may oylarida

3,2



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

68,3



Fuqarolik obyektlarini qurilishi

28,5



Bino va inshootlarni qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **25,5 %** ni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,0 %** punktga ko'payish kuzatildi. Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021-yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,1 %** punktga ko'paygan, **51,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021-yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,9 %** punktga kamayib **22,7 %** ni tashkil etdi.



■ 2021- yil yanvar - may oylarida

■ 2022- yil yanvar-may oylarida




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **27,1 %** ni tashkil etdi va 2021-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **4,8 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **72,8 % (4,9 % punktga ko'paydi)**.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **17,1 %** ni tashkil etdi va 2021-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **3,9%** punktga kapaydi. **82,9 %** ulush kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **3,9 %** punktga kamayish kuzatildi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-may oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Samarqand sh.
1041,5

2

Pastdarg'om
218,4

1

Toyloq
330,3

3



Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

Nurobod
31,6

2

Paxtachi
54,9

1

Qo'shrobot
55,4

3





**Samarqand viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Tel: (66) 230-45-32

